

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Otanazzarova Xosila Jasurbek qizi¹

Annotatsiya: Maqola agrar sohada suv resurslaridan foydalanish ahamiyati va undan sug‘orishda oqilona foydalanish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bugungi suv resurslarining tanqisligi, suvdan foydalanishni tartibga solish, ayrim rivojlangan mamlakatlarda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek sohani rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv, suv resurslari, agrar soha, qishloq xo‘jaligi.

Kirish.

O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi yaqin yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, qator vazifalar bilan birgalikda, tarmoq boshqaruvida davlatning ishtirokini qisqartirish va bozor mexanizmlarining rolini kuchaytirish, tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

Respublikamizda suv strategik ahamiyatga ega bo‘lgan resurs hisoblanadi, chunki mavjud suv resurslarining asosiy qismi iqtisodiyotimiz rivojida muhim o‘rin tutuvchi agrar soha ehtiyoji uchun sarflanadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining salkam 97% aynan sug‘oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Ma‘lumki, bugungi kunda Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimizning ichki bozoridan tashqariq eksport bozorida ham O‘zbekistonning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga talab ancha katta. Bu hol sohani rivojlantirish va sug‘orma dehqonchilikda suvdan oqilona foydalanishni, sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsientlarini oshirishni taqozo etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘orish uchun suv iste‘moli mavjud suv resurslarining taxminan 60% dan foydalansa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu 90% ga yetishi mumkin [1]. Shu bois respublikamizda suv resurslari cheklangan bir sharoitda suvdan samarali foydalanish, suvni tejoychi texnologiyalarni tatbiq etish hamda sug‘orish tizimini modernizatsiya qilish ishlarini davom ettirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Yurtimizdagi ichki daryolar qishloq xo‘jaligidagi suvga bo‘lgan ehtiyojimizni qondira olmasligini hammamizga ayon. O‘zbekiston ichki daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik suv resurslari 11,5 ming m³ bo‘lib, bu respublika suv ehtiyoji umumiy miqdorining 18 foizini tashkil qiladi [2]. Transchegaraviy daryolar hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo o‘zanidagi suv manbai esa qo‘shni davlatlar hududida. Sirdaryo Qirg‘izistondan, Amudaryo esa Afg‘oniston va Tojikistondan boshlanadi. Bu daryolarning suvi xalqaro kelishuvlarga ko‘ra, asosan Markaziy Osiyo davlatlari va Afg‘oniston orasida taqsimlanadi. Bu har yili suvning qanday shakllanishiga bog‘liq.

¹ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali



Mamlakat qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligi masalalarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligining roli juda muhimligini e'tirof etish zarur.

Bu o'rinda qayd etish joizki, qishloq xo'jaligida dastlab strategik ahamiyatga ega paxta va g'alla ekinlarini suv bilan ta'minlashga ustuvorlik berilmoqda [3]. Qariyb 60 % suv ushbu ekinlarni sug'orish uchun sarflanmoqda. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan paxta va g'allaga sarflangan suvning iqtisodiy samaradorligiga bog'liqdir [4].

Lekin shunga qaramay, respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalarida keng miqyosda diversifikatsiya va modernizatsiya qilish ishlari olib borilayotgan davrda mazkur sohani yanada rivojlantirish va suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan yangicha yondashuv talab etiladi.

Suv olish tarmoqlarimizning o'zidayoq yo'qotilayotgan suv hajmi juda katta. Umumiy suv hajmining 40 foizgacha bo'lgan qismi kanallar va ariqlarda filtratsiya (suvning yerga singib ketishi), bug'lanish, maqsadsiz oqib ketish jarayonida yo'qotiladi. Chunki bizda kanallarning bor-yo'g'i 12-15%i betonlashtirilgan. Bundan tashqari hududlarda ko'p suv talab qiladigan ekinlar ekilishi ham mavjud vaziyatni yanada og'irlashtiradi.

Asosiy kanallardan dalagacha bo'lgan masofada filtratsiya, bug'lanish va yana bir qancha omillar hisobiga yo'qolayotgan suv hajmini hech bo'lmasa 10-15 foizga tushirish taklifini berganmiz. Buning uchun o'sha suv tarmoqlarida zarur muhandislik ishlarini amalga oshirish kerak. Birinchidan, suv oqimini to'g'rilash kerak. Ikkinchidan, kanallarni betonlashimiz zarur. Uchinchidan, kanallardan dalagacha bo'lgan masofada suv haydash uchun lotoklardan foydalanishimiz lozim. Yana bir taklifimiz esa ko'p suv talab qiladigan ekin maydonlarini qisqartirish. Shuning uchun keyingi yillarda paxta ekiladigan maydonlar ancha qisqardi. Biroq paxta dalalarini bundan ortiq qisqartirib bo'lmaydi. Chunki yurtimizda to'qimachilik korxonalari soni ham yildan yilga oshib bormoqda.

Suv tejovchi texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga joriy etish bo'yicha hukumat darajasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish, shuningdek, fermerlarga suv tejovchi texnologiya joriy etgan har bir gektar yeri uchun subsidiyalar berish to'g'risida Prezidentning «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (PQ-144-son) qarori qabul qilingan. Bunda paxta maydonlari uchun 8 mln so'm — Qoraqalpog'iston va Xorazmda 12 mln so'm, sabzavot va poliz ekinlari uchun 1,5 mln so'mdan 2,5 mln so'mgacha, mevali ekinlar uchun 6 mln so'm, uzum maydonlari uchun esa 8 mln so'mdan ajratilishi ko'zda tutilgan. Zero, tomchilab sug'oriladigan maydonlarni ko'paytirish orqali minimum 40% suvni tejash mumkin. Agar bu texnologiyadan samarali foydalanilsa 50% gacha suv tejiladi.

1-jadval.

2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Suv xo'jaligi vazirligida suv samaradolgini oshirish bo'yicha xarajatlar tarkibi [5], mln. so'm

1.	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	10 440 149,0
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1.	joriy xarajatlar	8 740 149,0
	<i>shundan:</i>	
1.1.1.	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	7 364 900,0
1.1.2.	paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib va diskret sug'orish tizimini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun xarajatlar	100 000,0
1.1.3.	Amudaryo daryosining Taxiatoş gidrouzeli yuqori byefidagi loyqa cho'kindilarni zemsnaryadlar yordamida tozalash ishlarini tashkil etish uchun xarajatlar	14 900,0



1.1.4.	suv xo'jaligi tizimidagi nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'moli bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun xarajatlar	7 100 000,0
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>	
	paxta va boshqoli don yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi xarajatini qoplash uchun subsidiyalar	150 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 700 000,0

Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish, ya'ni liberallashtirish masalalarini hal etishni tezlashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalaganlik uchun to'lanadigan haqlarni, soliqlar miqdorini realroq aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodi qonunlari talablariga asoslanish, shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi, holati, sifati, iste'molchilarga uzoq-yaqinligi, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi indikatorlarni ham e'tiborga olish zarur.

Suv isrofgarchiligining davom etishi tarmoqda iqtisodiy islohotlar sust davom etayotganligidan dalolat beradi. Suvning yo'qolishini bartaraf etishga yo'naltirilgan tashkiliy, iqtisodiy va ma'muriy chora-tadbirlarini qo'llash, bozor mexanizmi va tamoyillarini kengroq joriy etish davr talabi ekanligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish suvdan maqsadli va samarali foydalanishga yo'naltirilgan strategik maqsadning bosh omili bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Ushbu texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish maqsadida davlat tomonidan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish zarur.

Shuningdek, irrigatsiya tizimida suv hisob-kitob tizimini raqamlashtirishni yo'lga qo'yish hamda suv yo'qotishlarining oldini olish uchun kanallarni betonlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'simlikchilik uchun suvni samarali rejalashtirish va boshqarish chuqur bilim va samarali echimlarni talab qiladi. Potentsial hosil olish uchun ekinning suvga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi kerak. Shuning uchun qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim va ba'zan cheklangan suv resurslarini keraksiz isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uchun sug'orishni boshqarishni optimallashtirish kerak. Shunday qilib, ushbu maqsadga erishish uchun vegetatsiya davrida sug'orish uchun beriladigan suv miqdori ekinlar uchun samarali suv talabidan oshmasligi kerak.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun suvdan samarali foydalanish hali ham butun dunyo bo'ylab asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shunday qilib, qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim suv resurslarini keraksiz isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uchun ayniqsa suv o'simlikchilikda asosiy cheklovchi omil bo'lgan mamlakatlarda sug'orishni boshqarishni optimallashtirish kerak. Shuning uchun bu maqsadga erishish uchun vegetatsiya davrida sug'orish uchun beriladigan suv miqdori ekinlarning samarali suvga bo'lgan ehtiyojidan oshmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, suv- har bir mamlakatning ayni damdagi eng global muammosidir. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab shuningdek mamlakatimizda ham suvdan oqilona foydalanish va suvni tejash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Inson boshqa narsalarsiz hayot kechirishi mumkin ammo suvsiz emas. Shu qatorda inson tanasining 75% suvdan tashkil topganligini va har bir nafas olayotgan jonning ma'lum qismi suvdan tashkil topganini aytish kerakligini to'g'ri deb o'ylayman. Shu sababli ham har bir rivojlangan yoki rivojlanayotgan qisqacha qilib aytganda qanaqa davlat bo'lishidan qat'i nazar har qanday davlatning eng dolzarb, eng global va kunlik muammosi suv va suvdan



foydalanishdir. Suvni bitmas tugalmas deb hisoblovchi mamalakatlar bugungi kunda fikrlari xato ekanligini tushungan. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, suvning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini miqdor va sifat jihatidan qondira oladigan birorta ham mamlakat yo'q. Suvdan qanday jabhada va qanday foydalanish kerak bo'lsa, agar u to'g'ri rejalashtirilmagan va boshqarilmagan bo'lsa, bu suv va boshqa tabiiy resurslar uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu tufayli ayniqsa qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishda e'tiborli bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Velasco-Muñoz, J. F., Aznar-Sánchez, J. A., Belmonte-Ureña, L. J., & Román-Sánchez, I. M. (2018). Sustainable water use in agriculture: A review of worldwide research. *Sustainability*, 10(4), 1084.
2. www.agro.uz – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi rasmiy sayti
3. Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. - T.: 2007. – B.34- 35.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son
5. Byudjetnoma 2024-2026. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf

